



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 22-dekabr

№ 2093

Boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 19-dekabrdagi SQ-230-V-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi lavozimiga saylanganligi munosabati bilan:

Akramov Abrorxon Agzamovich – Farg'ona viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Yozyovon tuman sudining raisi lavozimidan;

Zaynabidinov Nosir Sirojiddinovich – Andijon viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan;

Kurbanov Mansurbek Komilovich – Xorazm viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyasi lavozimidan;

Kuryazov Jamoladdin Shavkatovich – Xorazm viloyat sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan;

Mamadiyev Uktam Almirzayevich – Surxondaryo viloyat sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan;

Mullajanov Shuhrat Nizamovich – Jizzax viloyat sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan;

Nishonova Umida Mirzaumarovna – Namangan viloyat ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan;

Turdiyev Odiljon Sherbayevich – Namangan viloyat ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov